



ANTROPONIMLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Salaydinova Madina

Qarshi davlat universiteti magistranti

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p4-123>

ARTICLE INFO

Received: 11th February 2023

Accepted: 20th February 2023

Online: 21th February 2023

KEY WORDS

Antroponim, affiksatsiya, sintaktik usul, leksik-semantik usul, sodda, tub.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani matnida qo'llanilgan antroponimlarning grammatik xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Antroponimlar bo'yicha respublikamizda yirik mutaxassis sanalgan E.Begmatovning ishlarida antroponimlar o'zbek tilining lug'aviy boyligi hisoblangani uchun bu tilning tuzilishi, yasash qonuniyatlariga bo'y so'nishi alohida qayd etib o'tiladi. Olimning uqtirishicha, antroponimlarning tuzilish qoliplari, bir tomondan, antroponim uchun asos bo'lgan appelyativning xususiyatiga, ikkinchi tomondan, antroponimlarning o'ziga xos xususiyatlariga asoslanadi¹.

E.Begmatov o'zbek tilidagi ismlarni lisoniy tuzilishiga ko'ra uch guruhga ajratib o'rganishni tavsiya qiladi:

1. Sodda tuzilmali antroponimlar.
2. Yasama tuzilmali antroponimlar.
3. Qo'shma tuzilmali antroponimlar.

Sodda tuzilmali antroponimlar uchun asos bo'lgan leksemaning tuzilishiga mos keladi va mohiyatan tub nomlar sanaladi. Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani matnida *Namoz, Qurbon, As'hal, Aqrab, Abil, Jarqin, Rashid, Anvar, Ziyod, Roza, Klara, Zulayho, Samad, Chori, Rasul, Gulya, Qayum, Zuhro, Shodi, Said, Zohir* singari sodda antroponimlar qo'llangani kuzatildi.

E.Begmatov sodda antroponimlar xususida yana quyidagilarni yozadi: "... Sodda ismlarni sodda, tub deyish, ularni bo'g'in tuzilishiga ko'ra tahlil qilish, aslida ism uchun asos bo'lgan appelyativning tuzilishini qayd qilishdan iboratdir. Bu xususiyatlar ismga xos deb o'ylash o'rinli emas. Chunki appelyativ yaxlit leksema holatida ism vazifasiga o'tadi. Bu o'rinda appelyativ atoqli otga o'tgach, unda hosil bo'ladigan xususiyatlar haqidagina gapirish mumkin. .. Shuni ham ta'kidlash joizki, o'zga tillardan o'zlashgan bir qator ismlar uni qabul qilgan til – o'zbek tilida sodda ism sifatida qabul qilinadi."²

¹ Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent, O'zME nashriyoti, 2013. – B.217.

² Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent, O'zME nashriyoti, 2013. – B.217



Yasalma tuzilmali antroponimlar. Onomastika, jumladan, antroponimika sohasida soʻz yasalişining bir qator usullari mavjudligi lingvistik manbalarda qayd etiladi. Masalan, E.Begmatovning ishlarida apellyativ leksikaning ism vazifasiga oʻtishi bir necha usullarda amalga oshishi xususida fikr yuritiladi:

1. Fonetik-oroepik usul.
2. Leksik-semantik usul.
3. Affiksatsiya usuli.
4. Sintaktik (kompozitsiya) usuli³.

Antroponimlarning **fonetik-orfoepik** usulda yasalişhi deganda olimlarimiz ismlarning oʻzbek tilida ism egasini erkalash-kichraytirish tufayli qisqargan shaklga kelib qolishini koʻzda tutadilar. Togʻay Murodning romanida bunday qisqartirilgan ismlar deyarli uchramaydi. Shunday ekan yasalişning bu turi haqida ortiqcha toʻxtalişning hojati ham yoʻq.

Leksik-semantik usulda yasalgan nomlar. Ismlarning bu usulda yasalişhi tub, sodda, yasama leksema, qoʻshma leksemalarning ism vazifasiga tayyor holda transnominatsiya usulida koʻchishidir. Bu usulda apellyativ ismga koʻchar ekan, onomastik sathda u hech qanday oʻzgarishga uchramaydi, toʻgʻridan-toʻgʻri ism sifatida qoʻllaniladi. Masalan: jasur (apellyativ) – Jasur (ism), Muqaddas (apellyativ) – Muqaddas (ism) kabi.

Togʻay Murodning romanida ham shunday holatda yasalgan ismlar uchraydi. Quyida shular xususida soʻz yuritimiz: namoz (apellyativ) – Namoz (ism), qurbon (apellyativ) – Qurbon (ism), aqrab (apellyativ) – Aqrab (ism), ziyod (apellyativ) – Ziyod (ism) kabilar shu usulda yasalgandir.

Affiksatsiya usulida yasalgan ismlar. Turdosh otlarda boʻlgani singari atoqli otlarda ham affiksatsiya usulida ism yasalişhi hodisasi mavjudligi lingvistik adabiyotlarda qayd etib oʻtiladi. Bu usulda ism yasalişhida quyidagi qoʻshimchalar faol ishtirok etishi koʻrsatilgan: *-chi, -li/-lik, -cha, -mon/-man, gan/-kan, -an,-gʻan, -ak, -q/iq, -lan, -mish, -don, -a, -ya,-/iya* kabilar.

Togʻay Murod romanida qoʻllangan quyidagi ismlarni affiksatsiya usulida yasalgan ismlar deyish mumkin. Bu xususda shuni ham aytish joizki, romanda affiksatsiya usulida yasalgan ismlar juda kam. Masalan: *-don* affiksi orqali yasalgan Xoldon ismigina uchraydi.

Antroponimlarning sintaktik usulda yasalişhi. Bu usul antroponimlar yasashda eng sermahsul usul sanaladi. E.Begmatovning bergan maʼlumotlariga koʻra “Oʻzbek ismlari maʼnosi” lugʻatida 14600 ta ism izohlangan boʻlsa, shu nomlarning 8194 tasi qoʻshma ismlardir. Olimning taʼkidlashicha, oʻzbek tilidagi qoʻshma ismlarni ikki guruhga ajratish mumkin: 1) tilda avvaldan qoʻshma soʻz sifatida tayyor holda mavjud boʻlgan turdosh leksemadan yasalgan ismlar; 2) antroponimlar doirasida yasalgan qoʻshma ismlar⁴. Mana shu ikki usulda yasalgan qoʻshma ismlar kishi nomi sifatida tilda uzoq davrlar davomida isteʼmolda boʻlgan va ism (atoqli ot) sifatida turgʻunlashgan va shakllangan.

Qoʻshma ismlarning yasalişhi haqidagi tadqiqotlarda qismlarining semantik munosabatiga koʻra ularni ikki guruhga ajratib oʻrganish maqbul deb topilgan. Ularning birinchisida qoʻshma ism komponentlari orasida tobe munosabat sezilib tursa, ikkinchisida teng munosabat kuzatiladi. Shu asosda komponentlari aniqlovchi+aniqlovchili qoʻshma ismlar: Xudoynazar, Oytugʻmish, Oychiroy, Gulchechak va boshqalar; izofali qurilmaga

³ Begmatov E. Oʻzbek tili antroponimikasi. – Toshkent, OʻzME nashriyoti, 2013. – B.218.

⁴ Begmatov E. Oʻzbek tili antroponimikasi. – Toshkent, OʻzME nashriyoti, 2013. – B.242.



asoslangan qo'shma ismlar: Karimulla, Sa'dulla, Sayfiddin, Ziyovuddin, Asiliddin, Rashididdin, Jamoliddin, Sarviniso, Bahriniso, Tojiniso va boshqalar; ega va kesim qolipida hosil bo'lgan qo'shma ismlar: Azizberdi, Xolberdi, Esonkeldi, Haqberdi kabi; to'ldiruvchi va kesim qolipida hosil bo'lgan ismlar: Izbosti, Olloshukur, Yo'lbosar, O'rinbosar, O'tbosar, Tovoshar kabi; hol va kesim qolipi asosida hosil bo'lgan ismlar: Po'lattursin, Toshqo'rg'on, Bektursun, Bekturdi, Omonturdi kabi turlarga bo'lib tahlil qilinadi⁵.

O'zbek tilida komponentlari teng birikuvga asoslangan qo'shma ismlar ham uchraydi. Soha mutaxassisi E.Begmatov bu shakldagi qo'shma ismlarga Oytosh, Dadaqo'zi, Tursunali, Muhammadturdi, Ergas'hali, Toshkarim singari ismlarni kiritadi.

E.Begmatovning nazariy fikrlariga tayangan holda Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani matnida uchraydigan qo'shma antroponimlarni lingvistik tahlil qilishga harakat qilamiz. Roman matnida quyidagi qo'shma ismlar uchraydi: *Hayotxon, To'xtamishxon, Xoliqul, Dehqonqul, Normurod, Ibrohimbek, Oysuluv, Shoberdi, Norguloy, Javlonboy, Xursandoy, Qulmat, Nurmuhammad, Najibullo, Baxtiyor, Elnuri, Bobomurod* kabi.

Roman matnida qo'llangan ismlardan Oysuluv, Norguloy, Xursanoy, Dehqonqul, Xoliqul, Elnuri ismlari komponentlari aniqlovchi+aniqlovchi tipli qo'shma ismlarga kirsas, Baxtiyor, Najibullo ismlari izofali qurilmali ismlar sanaladi, Shohberdi (Shohberdi) ismi esa ega va kesim qolipi asosida hosil bo'lgan qo'shma ismdir.

Qo'shma ismlarning ikkinchi turi komponentlari teng birikuvga asoslanganga o'xshab ketadi. Yozuvchining romanida bu tur qo'shma ismlar deyarli uchramadi.

References:

1. Begmatov E. O'zbek ismlari ma'nosi. – Toshkent: O'zME nashriyoti, 1998.
2. Sattorov G'. O'zbek ismlarining turkiy qatlami: Filol. fan.nomz... dis. avtoref. – Toshkent, 1990.
3. Rahimov S. Xorazm mintiqaviy antroponimiyasi: Filol.fan.nomz....dis. – Toshkent, 1998
4. Xudoynazarov I. Antroponimlarning til lug'at tizimidagi o'rni va ularning semantik-uslubiy xususiyatlari (Ergash Jumnabulbul dostonlari misolida): Filol.fan.nomz...dis. avtoref. – Toshkent, 1998.

⁵ Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent, O'zME nashriyoti, 2013. – B.240-245